

**O'ZBEKISTONDA EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING AYRIM JIHLTLARI***Inagamova Mafura Muxtarxanovna**Toshkent Davlat Transport universiteti dotsenti,**{PHD}, dotsent**Sindarov Beksulton Shavkat o'g'li**Toshkent davlat Transport Universiteti 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada hozirda yurtimizda kuzatilayotgan ekologik holat, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiatga yetkazilayotgan zararli oqibatlar va ularning inson hayotiga salbiy ta'siri, shuningdek ushbu holatlarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olishga qaratilayotgan chora-tadbirlar va atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning ayrim jihatlari to'g'risida yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** Ekologiya, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, ifloslanish, chuchuk suvdan foydalanish talablari, ekologik muommolar, tabiat bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklar, sanitariya-gigenik talablar, transchegaraviy ifloslanish, PM-2,5 dispers zarralari, huquqiy mexanizmlar.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрена современная экологическая ситуация в нашей стране, загрязнение окружающей среды, вредные последствия для природы и их негативное влияние на жизнь человека, а также причины возникновения этих ситуаций, меры по их предотвращению, а также некоторые аспекты природоохранных аспектов объясняются.

**Ключевые слова:** Экология, охрана окружающей среды, загрязнение, требования к использованию пресной воды, экологические проблемы, правонарушения, связанные с природой, санитарно-гигиенические требования, трансграничное загрязнение, дисперсные частицы ПМ-2,5, правовые механизмы.

**Annotation:** In this article, the current ecological situation in our country, environmental pollution, harmful consequences to nature and their negative impact on human life, as well as the causes of these situations, measures to prevent them, and some aspects of environmental protection aspects are explained.

**Key words:** Ecology, environmental protection, pollution, fresh water use requirements, ecological problems, violations related to nature, sanitary and hygienic requirements, transboundary pollution, PM-2.5 dispersed particles. legal mechanisms.

Xayotimizning asosiy qismi hisoblangan tabiat, bugungi kunda insoniyat uchun dolzarb bo'lgan muommolarni keltirib chiqarmoqda. Shu jumladan poytaxtimiz Toshkent shahrida ifloslaning darajasing keskin oshib ketishi, tog'li hududlarda qor ko'chkilari, sel kelishi xavflaring ko'payishi, ob-havo haroratining keskin oshib yoki

tushib ketishi, shuningdek Orol muommosing tobora chuqurlashuvini misol qolib olsak bo'ladi. Bularning barchasini sababi, insoniyat tabiatga va uning qoidalariga qarshi harakat qilmoqda va buning natijasida, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat buzilmoqda. Bu kabi tabiat xodisalari so'ngi paytlarda mamlakatimizda nihoyatda oshib bormoqda.

Toshkent shahri havosining iflosligi bo'yicha IQ Air reytingida Dehlini ham ortda qoldirib, dunyoda 1-o'ringa chiqqani va bu son-sanoqsiz daraxtlarni kesish, pala-partish qurilishlar va sifatli jamoat transporti bo'lmaganligi sabab shaharda avtomabillar ko'payib borayotgani fonida yuz berdi. "O'zgidromet" stansiyalari qayd etib boruvchi ko'rsatkichlarga asoslanuvchi IQAir portaliga ko'ra Toshkent havosida mayda PM-2,5 dispers zarralarining konsentratsiyasi 212 mkg/m ni tashkil etgan juda zararli ko'rsatkich bo'lib, Jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti belgilagan me'yordan 42,4 barobarga ko'pdir. JSST ko'ra, havo ifloslanishi ko'rsatkichlari orasida salomatlik uchun eng katta xavf tug'diradigan aynan PM-2,5 dispers ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Bizni o'rab turgan va qaysidir ma'noda himoya qilayotgan yashillik yo'qolib, uning o'rnini bo'shliq egallayapti. Bu jarayondagi asosiy masalalardan biri odamlarning ekologiya, tabiat bilan to'g'ri muomala qilmasligidir. Ekologik madaniyat shakllanmas, jamiyatning o'zi tiriklikni saqlab qolishga intilmas ekan, natijaga erishish murakkabligicha qolaveradi. Insoniyat kundan kunga ortib borayotgan ehtiyojlari sabab ko'plab ne'matlarning yo'qloqka yuz tutayotgani, afsuski, haqiqat. Daraxtlar kamayib, atrof-muhit cho'llashyapti, zavod, fabrika gazlari esa global havo isishi, havo ifloslanishiga olib kelmoqda.

Yurtimizda ekologik holatni yaxshilash va atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan: yurtimizda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi joriy qilindi. Shuningdek, mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash hamda sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadida, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish tog'risida prezidentimiz 2021-yil 30-dekabrda qaror berdi.

Mamlakatimizning mustaqil rivojlanish jarayonida atmosfera havosini muxofaza qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida atmosferaga chiqarib tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdori 1991 yildan 2006 yilgacha qariyb ikki barobarga (1991 yil 3,81 mln.tonna, 2006 yilga kelib bu ko'rsatkich 1,92 mln.tonni tashkil etgan) kamayishi hisobiga ko'plab shaharlar va axoli yashash joylarida atmosfera xavosining ifloslanish darajasi sanitariya-gigienik normativlar talablariga to'la mos keldi.



Shu bilan birgalikda 2010 yildan 2016 yilgacha atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori ortib borgan va 2016 yili qariyb 2,556 mln. tonnani tashkil etgan. Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi miqdorining ortishi iqtisodiyotning jadal rivojlanishi jarayonida ishlab chiqarish korxonalari va transport vositalarining soni ortishi bilan izoxlanadi. Shuningdek ushbu yillarda atmosfera havosini muxofaza qilish sohasidagi qonunbuzilish holatlari ham ortishi kuzatilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida’gi Qonun 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan. Atmosfera havosining ifloslanishi, uning tabiiy tarkibini saqlash kabi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan muhim maqsad va vazifalar Qonun bilan aniqlab berilgan. Qonun qabul qilingandan so‘ng o‘tgan 20 yil mobaynida Konunga uch bor, asosan tahririy xususiyatdagi, jumladan 13 va 25-moddalariga o‘zgartishlar kiritilgan. Amaldagi Qonunning ayrim normalari havolaki xususiyatda, ziddiyatlar mavjud, amalga oshirish mexanizmi bo‘lmaganligi ularning huquqni qo‘llash amaliyotini qiyinlashtiradi.

Amaldagi Qonunning 1-moddasi tushuntirish tusida ekanligi, huquqiy yuklamaga ega emasligi hamda Konstitutsiyaning 55-moddasida va “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida’gi Qonunning 2-moddasida atmosfera havosi tabiatni muhofaza qilish obyekti sifatida ko‘zda tutilganini hisobga olib ushbu moddani chiqarish taklif etilmoqda. Shu bilan birgalikda “atmosfera havosi” tushunchasi qonun loyihasining 3-moddasida (“Asosiy tushunchalar”) berilmoqda. Qonunchilik texnikasidan kelib chiqib, bitta tushunchani har xil talqin etilishini oldini olish uchun 1-moddani chiqarish taklif etilmoqda.

Atmosfera havosi sifati normativlarining bir xilligini ta’minlash maqsadida, amaldagi Qonunning 7-moddasida ko‘rsatilganidek hamda “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida’gi Qonun talablarini hamda qonun loyihasining 8-moddasida ko‘rsatilgan atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining vakolatlarini hisobga olgan holda amaldagi Qonunning 6-moddasini chiqarish taklif etilmoqda.

Ushbu qonun loyihasining maqsadi normativ-huquqiy, iqtisodiy mexanizm va vositalarni takomillashtirish, qonun buzilishlari natijasida qo‘llaniladigan iqtisodiy choralar tizimini rivojlantirish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini hamda ekologik huquqlari himoyasini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlarni yaratishdan iborat.

Qonun loyihasida atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, Vazirlar Mahkamasi, vakolatli davlat organlari, Hidrometeorologiya xizmati markazi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolarning huquq va burchlari aniqlab berilgan.

Qonun loyihasida NNTlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi huquq va burchlari qismida mazkur sohadagi roli kuchaytirildi, bu demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Qonun loyihasining 3 bobi (atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida normativlash) va 4 bobi (atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida asosiy talablar) doimiy va ko'chma ifloslantiruvchi manbalardan chiqayotgan ifloslantiruvchi moddalarga hamda yoqilg'ilarning ekologik tavsiflariga ekologik normativlar talablarini bosqichma-bosqich yanada kuchaytirib borishni ko'zda tutadi. Bu fan, texnikaning rivojlanishi, eng yaxshi qulay texnologiyalar va xalqaro tajribani tatbiq etish bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

Qonun loyihasida yoqilg'ini yoqish, transport vositalari va boshqa qatnov vositalari hamda qurilmalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni texnik jihatdan tartibga solish sohasida, kimyoviy moddalarni o'simliklarni himoya qilish vositasi, ularning o'sishini tezlashtiruvchi omil, mineral o'g'it va boshqa preparatlar sifatida ishlatishda atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha normativ hujjatlarga talablar aniqlashtirilgan.

Bundan tashqari:

- atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi;
- ozon qavatiga salbiy ta'sir ko'rsatishni bartaraf etish;
- xalqaro darajada qo'llanuvchi atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan mahsulotlarni ishlatish va ishlab chiqarishni iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishga doir yangi normalar qonun loyihasiga kiritilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi:

- atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat siyosati va boshqaruvining asosiy yo'nalishlarini belgilash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari chegaralarini belgilash va aniqlashtirishga;

- atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, NNTlar va fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashga;

- atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini joriy etishga;

- ozon buzuvchi moddalar va ularni tarkibida tutuvchi mahsulotlarni O'zbekiston hududidan olib chiqish va mamlakat hududiga olib kirishni huquqiy tartibga solishga;

- atmosfera havosini transchegaraviy ifloslanishining kamayishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi PQ-2915-sonli "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat



qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi farmonini bajarish maqsadida, 2017 yil 21 avgustdagi 538681-sonli ma‘lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti ish faoliyatini boshladi.

Institut sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlash va yo‘q qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida me‘yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Institut faoliyati Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining tabiiy resurslarni muhofaza qilish sohasidagi dolzarb va istiqboldagi vazifalarini hal qilishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda chiqindilarni va tabiiy suvlarni toksik moddalardan, og‘ir metallardan, biogen elementlardan tozalash, suv, tuproq va tuproqlarni neft mahsulotlaridan tozalash bo‘yicha ishlanmalar eng katta qiziqish va dolzarblikdir.

Institut respublikamizdagi ifloslanishni kamaytirish va sanoat, qishloq xo‘jaligi va kommunal ob‘ektlardan tabiiy suv manbalariga quyiladigan chiqindi suvlar hajmini kamaytirishga qaratilgan. Suvni muhofaza qilish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha asosiy tadqiqot tashkilotlaridan biri hisoblanadi, shuningdek ichimlik suvi sifatini oshirish texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal qiladi. Shahar kanalizatsiya tizimiga va ochiq suv havzalariga tushirish me‘yorlariga erishish, shu bilan ochiq suv havzalari hamda atrof-muhitga antropogen bosimni kamaytirishga imkon beradigan maishiy va ishlab chiqarish chiqindi suvlari, ularning aralashmalarini tozalash va tozalashdan so‘ng qilinadigan tadbirlarni ishlab chiqadi.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta‘siri natijasida atrof muhitda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Tabiiy muhit holatining inson ta‘sirida o‘zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta‘sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta‘sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inkirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.

Orol dengizidan sug‘orish ishlarini noto‘g‘ri foydalanish oqibatida, uning suvlari qurib, tuproqda tuzlar va boshqa minerallarni qoldirdi. Ular nafaqat tuproqni ifloslantirdi, balki shamol va bo‘ronlar orqali ko‘tarilib, boshqa hududlarga, shu jumladan ekin maydonlariga ham tarqaldi. Bu nafas olish tizimi kasalliklari va saratonning kuchayishiga olib keldi. Orol hajmining o‘zgarishi mahalliy iqlimga ham ta‘sir qildi va bo‘ronlarning ko‘payishi va kuchayishiga olib keldi.

Orol dengizining qisqarishi natijasida mahalliy aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelgani shubhasiz. Orol dengizi hududining ko‘p qismi zarar ko‘rganligining asosiy sabablaridan biri „suvdan noto‘g‘ri foydalanish“ edi. Orol dengizi mintaqasidagi o‘zgarishlar natijasida inson salomatligiga ta‘sir qilishi mumkin

bo‘lgan ekologik ta’sirlarga „suv sathining pasayishi, atrof-muhit va oziq-ovqat zanjiridagi pestitsidlar, chang bo‘ronlari va havodagi o‘zgarishlar“ misol bo‘ladi.

Sovet ittifoqi davrida Orol dengiziga quyiladigan Amudaryo va Sirdaryo suvlari O‘zbekiston paxta dalalarini sug‘orishga sarflanar edi. Amudaryo va Sirdaryoning yaylovlari va serhosil yerlarida parrandachilik, va chorvachilik sohalarida 100 mingdan ortiq aholi bandligi ta’minlangan edi. Hududda paxta dalalarining monokulyar dehqonchilik yillarida tuproqlar tarkibidagi tabiiy minerallar va ozuqa moddalari miqdori kamayib ketdi. Bu, oxir-oqibat, tuproq sifatini yaxshilash uchun pestitsidlar va o‘g‘itlardan foydalanishning ko‘payishiga olib keldi. Biroq, bu ko‘p miqdorda foydalanilgan kimyoviy moddalar tuproqqa, suvga va nihoyat Orol dengiziga ta’sir ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligidagi bu o‘zgarishlar “tuproqning tarkibining o‘zgarishiga, suv sifati va miqdorining yomonlashishiga olib keldi.

Orol va Orolbo‘yi muammosini yechishdagi uchta asosiy yo‘nalishlar ya’ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitar-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e’tibor qaratildi. Sog‘liqni saqlash va sanitariya xizmati darajasini keskin yuqoriga ko‘tarish zarurligi uqtirildi; ikkinchidan, dengizning qurigan janubiy qirgoqlarida sun’iy damba qurib, delta eksosistemasini doimiy suvlashtirish yo‘li bilan "Yashil kamar" hosil qilish; uchinchidan, dengizni o‘zini sahlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko‘p miqdorda suv yuborib turish kerakligi va bundan tashqari Orolni qurigan tubida saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko‘chishi, chang ko‘tarilishini oldini olinishi mutaxassislar tomonidan ta’kidlandi.

Turkiy xalqlarning eng qadimiy madaniy, ma’naviy va ma’rifiy yodgorligi hisoblanmish “Avesto”da ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilgan. O’sha davrlarda mavjud to‘rt unsur, ya’ni: yer, olov, suv va havo shunday e’zozlanganki, havoni buzish yohud ifloslantirish nafaqat hayvon jasadi, balki odam jasadini yerga ko‘mish, suvga oqizish, olovda yoqish gunohi azim hisoblangan.

Zardushtiylik dini qonunlarida ham yer, olov, suv va havoni ifloslantirish jinoyat hisoblanib, bunday jinoyatlar uchun 400 qamchi urib jazolaganlar yoki sodir etilgan jinoyat og‘irroq bo‘lsa, gunohkor o‘lim jazosiga mahkum etilgan yohud bunday jinoyat qilganlarni katta jarima evaziga afv etish yoki qul sifatida ulardan jamoat ishlarida foydalanish masalalarini oliy sudya Zaratushtra Oqsoqollar Kengashi vakillari va jamoaning nufuzli a’zolari ishtirokida bamaslahat adolatli qonunlar asosida hal qilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Qolaversa, suvni, havoni, tuproqni, hayvonot dunyosini avaylab-asrash to‘g‘risida muqaddas Qur’oni Karim oyatlari hamda hadisi-shariflarida ham e’tirof etiladi.

Ayniqsa, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishning yuksak namunasi buyuk Amir Temur olib borgan siyosatda ham ko‘zga tashlanishi muhimdir, ya’ni



“Yana amr etdimki, – deb yozadi buyuk Sohibqiron Amir Temur “Temur tuzuklari” asarida, – kimki biron-bir sahroni obod qilsa yoki koriz (O‘rta Osiyo va Kavkazning tog‘ etaklaridagi hududlarda yer osti suvlarini oqizib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yohud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchunchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar” Shu asnoda atroftabiiy muhitni asrab avaylash, yetkazilgan zararli hamda aybli qilmishlar uchun javobgarlikning belgilanishi bir necha ming yillik tarixga ega ekanligi ahamiyatlidir.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo‘lgan farzandlik burchidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz
2. <https://uznature.uz/uz/activity/institute?numer=465>
3. [www.eco.gov.uz](http://www.eco.gov.uz)
4. Азиз Абдуҳақимов. «Экологик муҳит ва муаммолар» “Газета.уз” Т.: 2022.
5. [https://www.norma.uz/oz/nhh\\_loyihalari/atmosferaga\\_ifloslantiruvchi\\_moddalar\\_chiqarilishiga\\_nisbatan\\_talablar](https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/atmosferaga_ifloslantiruvchi_moddalar_chiqarilishiga_nisbatan_talablar)
6. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
7. [NHH loyihalari](http://NHH_loyihalari)
8. <https://www.uzjoku.uz/uz/news/orol-muammosi-haqida>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 21.04.2017 yildagi PQ-2915-son. **O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida**
10. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 18-son, 317-modda, 29-son, 682-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2018-y., 06/18/5329/0846-son, 08.06.2018-y., 06/18/5457/1324-son, 05.10.2018-y., 07/18/3956/1994-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son
11. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.1996 yildagi 353-I-son. ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH TO‘G‘RISIDA. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda 754-XII-son “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi *qarori*